

Yoshlar ma'naviy tarbiyasida "uzluksiz tarbiya konsepsiyasi" ning ahamiyati

Mo'minjonova Umida Xaydarovna
JDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi (ma'naviyat asoslari)
yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi, shu bilan birga "Uzluksiz tarbiya konsepsiyasi"ning tarbiya masalasidagi o'rnini ochib berish orqali ilmiy asoslangan ta'riflar keltirilgan. Tarbiya har qaysi davr va har qanday jamiyat uchun doim eng muhim masala bo'lib qolishi haqida ma'lumotlar berilgan. Yoshlarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda muhim bo'lgan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, uzluksiz tarbiya, yoshlar tarbiyasi, konsepsiya.

Annotatsiya: В state даны научно обоснованные определения проблемы духовно-нравственного воспитания молодежи, а также роль "Концепции непрерывного образования" в проблеме образования. Говорят, что воспитание всегда будет самым важным вопросом для любого периода и любого общества. Даны рекомендации, важные в духовно-нравственном воспитании молодежи.

Klyuchevye slova: Obrazovanie, духовно-нравственное воспитание, непрерывное образование, воспитание молодежи, конsepsiya

Annotation: The article provides scientifically based definitions of the issue of spiritual and moral education of young people, as well the role of the "Concept of Continuing Education" in the issue of education. It is said that upbringing will always be the most important issue for any period and any society. Recommendations are important in the spiritual and moral upbringing of young people.

Keywords: Education, spiritual and moral education, continuous education, concept

“Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlar hammadan ham unutmasin: Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiyadan.”¹

2019-yil 3-may sanasida "Mana'viy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish

¹ Sh. Mirziyoyev. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizni sofliğini asrash – davr talabi" 15-iyun 2017 yil

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4307-sonli Qarori imzolandi. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish maqsadida Vazirlik va davlat hokimiyati organlariga yo'nalishidan kelib chiqib vazifalar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda ma'suliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodiga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimlilikligi mustahkam ma'naviy-axloqiy his tuyg'u va xislatlarni shakllantirish kerak. Mazkur masalaning davlatimizning ustuvor siyosiy yo'nalish darajasiga olib chiqqanligining o'zi tarbiyaning qanchalik dolzarb ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Buni 2019-yil 31-dekabr Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarorining qabul qilinishida ko'rish mumkin. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining tarkibi VIII bob, 70 ta bo'limdandan iborat. Konsepsiyaning maqsadi- yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Konsepsiyada yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining tizimli bosqichi ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra

maktablarda I-XI sinflar uchun Tarbiya fani ishlab chiqildi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlar Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi. "Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish vazifa qilib belgilangan. "Ta'lim tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy bilimlarni, nazariy qarashlarni ajdodlarimiz merosi, hayotiy tajribasini o'rganish asosida ijtimoiy amaliyot bilan bog'lash zarur."² Mazkur konsepsiyada yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning barcha zaruriy komplekslari to'liq, uzviylik asosida ishlab chiqilgan. "Zikr qilingan uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O'zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishingiz mumkin va qo'lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo'lmasa, aqli hamda jismoniy kuchini o'zi yoki atrofdagilar zarar

iga ishlatadi. Binobarin bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat qilish lozim."³

Tarbiya konsepsiyasi har tomonlama yoshlarni yetuk tarbiyalanib kamol topishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. "O'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoiylilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mehnatsevarlilik, jonkuyarlilik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, bolajonlik, murosallilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik,

² B.Ochilova, T.Axmedov "Jamiyat va inson: daxldorlik va yuksalish omillari", Toshkent, "Ijod-Print" 2020 yil 45-bet

³ Abdurauf Fitrat "Oila yoki oila boshqarish tartiblari", Toshkent, "Ma'naviyat" 2000 yil, 83-bet

pazandalik, kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish reja asosida tizimlashtirilgan."⁴

Jamiyatda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda to'siq bo'luvchi bir qancha xavflar ham bor. Bulardan biri internet va ijtimoy tarmoqlardir. Global davrda bularsiz rivojlanishni tasavvur etib ham bo'lmaydi, ammo yoshlarda mafkuraviy immunitetni oshirish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. "Internetda jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, shaxsning, ayniqsa, hali ongi shakllanib ulgurmagan yosh bo'g'inlarning dunyoqarashiga, g'oyaviy tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar ham oz emas..... Bizning sharqona axloq-odobimiz, milliy mentalitetimizga yot ana shunday salbiy illatlardan saqlanishimizda ibrat tarbiyasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi."⁵

Mazkur konsepsiyaning bir tarmog'i bo'lib hisoblanuvchi Tarbiya darsligi bugungi kunda o'quvchi yoshlar qiziqishi, xarakter xususiyatiga ko'ra juda iliq qarshi olinmoqda. O'zim ushbu fandan dars o'tar ekanman, har bir mavzu shaxsan men uchun ham nihoyatda qiziqarli va mazmunlidir. Har bir darsda o'quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida o'zaro hurmat va madaniyat, orzularini maqsad sari yo'naltirish, insoniylik, qadriyatlarga hurmat, oilaga sadoqat, ota-onaga muhabbat, ilmni qadrlash, jamiyatga aloqadorlikni his qilish, vatanni ardoqlash kabi yuksak tuyg'ular mustahkamlanayotganini nafaqat o'zlari, balki ustoz sifatida men ham ulardagi o'zgarishlarni tahlil qilib borayapman. Milliy qadriyatlarga hurmat hissining oshishi ham yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim sanaladi. "Milliy qadriyatlar kishilarda milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega."⁶ Shunday ekan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dastur va rejalarning keyingi bosqichlari bundanda kenroq bo'lib albatta o'z samarasini berishi shak-shubhasiz.

⁴ "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi", Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori

⁵ "Barkamol avlod va ijtimoiy taraqqiyot", Toshkent, "Tafakkur bo'stoni" 2010-yil, 47-bet

⁶ B.Ochilova, T.Axmedov, :Jamiyat va inson: daxldorlik va yuksalish omillari", Toshkent, "Ijod-Print" 2020-yil, 43-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-may, PQ-4307
- 2.SH.Mirziyoyev. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizni sofliğini asrash - davr talabi". 2017-yil 15-iyun
- 3."Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi". Vazirlar Mahkamasining 2019 -yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori
4. Abdurauf Fitrat Toshkent "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" "Ma'naviyat" 2000 yil
- 5.B.Ochilova, T. Axmedov "Jamiyat va inson: daxldorlik va yuksalish omillari" Toshkent "Ijod-Print" 2020 yil
- 6."Barkamol avlod va ijtimoiy taraqqiyot" Toshkent "Tafakkur bo'stoni" 2010 yil